

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.221(575.1)

TURDALIYEV ELDOR SHO'XRATJON O'G'LI

**QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURCHILIGIDA SALBIY FARQ
SUMMALARINI QOPLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun tayyorlangan
DISSERTASIYA**

**Ilmiy rahbar:
i.f.d.prof. A.A.Bozorov**

Toshkent -2025

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....	15
1.1-§ Qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy, huquqiy asoslari va iqtisodiy ahamiyati.....	15
1.2-§ Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligida salbiy farqni qoplash mexanizmining yangi zamonaviy yondashuvlar ahamiyati.....	40
1.3-§ Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hosil bo'lgan salbiy farqni qoplashga oid xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	62
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	75
II BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING SALBIY FARQ SUMMALARINI QOPLASHNING AMALIY HOLATI TAHLILI.....	76
2.1-§ Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq summalarini iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ta'siri tahlili.....	76
2.2-§ O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini rivojlanish qonuniyatlari va undagi tizimli muammolar tahlili.....	104
2.3-§ Soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud salbiy farq summalarini qoplashda soliq imtiyozlarining ta'siri tahlili.....	124
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	135
III BOB. SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA SALBIY FARQ SUMMALARINI QOPLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
3.1-§ Iqtisodiyotini tartibga solishda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini joriy qilinishi va takomillashuv tendensiyasi.....	138
3.2-§ Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish orqali soliqlarni tartibga solish funksiyasi samaradorligini oshirish.....	155
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	168
XULOSA.....	171
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	173

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Yangi soliq konsepsiyasi natijasida soliq tizimi ancha takomillashtirilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularni qo'llash jarayonida ayrim muammolar, aniqlik yetishmasligi va soliq organlari mutaxassislari hamda tadbirkorlar tomonidan ba'zi qonuniy qoidalarga qarshi keluvchi yondashuvlar kuzatilmoqda. Ba'zi holatlarda esa soliq tizimining ayrim tamoyillarining buzilishi hollari ham sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ko'p munozaralarga sabab bo'layotgan qo'shilgan qiymat solig'i shular jumlasidandir. Ushbu soliqni qo'llashdagi murakkabliklar va yechimlar bo'yicha soliq bazasini hisoblashda tahlil qilish va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon tajribasiga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy global iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini va soliq omillarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish, salbiy farq summalarini qoplash va ularni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish va uni undirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda biznesni rivojlantirish uchun qulay investitsion muhit yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Soliq tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, soliq to'lovlarini amalga oshirish va soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish jarayonlari turli davlatlarda keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuv, nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni soddalashtiradi, balki soliq tushumlarini oshirish hamda soliq qonunchiligiga rioya qilishni ham yaxshilaydi. Elektron tizimlar orqali soliqlarni to'lash jarayoni nafaqat vaqtni tejashga, balki soliq to'lovchilarning xarajatlarini ham kamaytirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, soliq ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlashda samaradorlikni

oshiradi. Shuningdek, davlatlar soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilashga harakat qilmoqda. Soliq stavkalarini pasaytirish yoki ayrim soliq turlarini bekor qilish orqali davlatlar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay investitsion muhit yaratishga intiladi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun soliqlarni kamaytirish siyosati keng qo'llanilmoqda. Tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan va raqamli soliq tizimining joriy etilishi nafaqat mahalliy, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim o'rin tutadi. Davlatlar investitsion muhitni yaxshilash va biznes uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga erishishni maqsad qilgan.

Soliq tizimidagi islohotlar tadbirkorlikni rag'batlantirish bilan birga, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, soliq tizimining samaradorligi ortishi natijasida budjetga tushumlar oshadi, bu esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlarni kengaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, soliq yukini kamaytirish orqali iste'molchilar daromadlari ko'payishi va ular tomonidan ko'proq xarajatlar qilinishi mumkin, bu esa ichki iste'molni oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning turli sohalarida o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sababli, soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uzoq muddatda umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ko'plab mamlakatlar tajribasiga ko'ra, soliq tizimidagi islohotlar tadbirkorlik muhiti va investitsiya oqimlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, xalqaro moliya institutlari ham tadbirkorlik va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun soliq islohotlarini qo'llashga chaqirmoqda. Soliqlarni soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonlari esa davlat boshqaruvini optimallashtiradi va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Elektron tizimlarning keng joriy etilishi soliq organlari faoliyatini shaffoflashtirishga, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajarish jarayonini esa soddalashtirishga imkon beradi.